

Atmosferaning ifloslanishi va uning oldini olish

Andijon davlat Pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 202-guruh talabalari Nabiyeva Dilzoda Abduvohidjon qizi
Inomjonova Muhtasar Muhiddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atmosferaning ifloslanishi inson salomatligi, ekotizmlar va umuman atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishi, uni oldini olish va boshqa ta’sirlari haqida ma’lumot keltirilib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о вредном влиянии загрязнения воздуха на здоровье человека, экосистемы и окружающую среду в целом, его предотвращении и других последствиях.

Abstract: This article provides information on the harmful effects of air pollution on human health, ecosystems and the environment in general, its prevention and other effects.

Kalit so‘zlar: Atmosfera, moddalar, chang, inson, tabiiy, sun’iy, organik, noorganik, o‘simliklar, hayvonlar, tuproq, transport, korxonalar, gazlar, fosfor, azot oksidlari, zavodlar.

Ключевые слова: Атмосфера, вещества, пыль, человек, природные, искусственные, органические, неорганические, растения, животные, почва, транспорт, предприятия, газы, фосфор, оксиды азота, заводы.

Key words: Atmosphere, substances, dust, human, natural, artificial, organic, inorganic, plants, animals, soil, transport, enterprises, gases, phosphorus, nitrogen oxides, factories.

Atmosferaning ifloslanishi - havo tarkibiga begona moddalar va qo‘shimchalarning me’yoridan ortiq to‘planishiga aytiladi. Havoning ifloslanishi tabiiy yoki suniy (antropogen) bo‘lishi ni mumkin. Tabiiy ifloslanish atmosferada doimo ma’lum miqdorda changlar bo‘ladi. U tabiatda sodir bo‘ladigan tabiiy hodisalar natijasida hosil bo‘ladi. Bunday changlarni 3 turga: ya’ni, mineral (noorganik), organik va koinot changlariga ajratish mumkin. Tog’ jinslarining yemirilishi va nurashi, vulqonlarning otilishi, to‘qay va o‘rmonlarga o‘t ketishi, dengiz suvlarining parlanib havoda tuzga aylanishi mineral changlarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Organik changlar havoda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

yashovchi aeroplankton organizmlar, bakteriyalar, sporalar, o‘simlik urug‘lari, o‘simlik va hayvonlarning chirindi va chiqindilari hisobiga hosil bo‘ladi. Koinot changlari meteoritlarning atmosferadan o‘tish vaqtida yongan qoldiqlaridir. Antropogen ifloslanish asosan transport vositalarida, sanoat korxonalarida va energiya ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda organik yonilg‘lardan foydalanish natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar va ajratmalarning havo havzasiga tushishi oqibatida sodir bo‘ladi. Atmosfera havosining ifloslanishi muammosi butun insoniyatni tashvishga solib bormoqda. Bu muammo, ayniqsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarda eng o‘tkir muammolardan bo‘lib turibdi. Atmosfera havosi ifloslanishidan insonlarga yetkazilayotgan zarar sanoat va maishiy chiqindilarni ochiq suv havzalariga tashlashdan yetkaziladigan zarardan kam emas.[1]

Hozirgi davrda atmosfera havosi ifloslanishi tufayli isib bormoqda. Havoning isishiga, ayniqsa, karbonat angidrid gazi sabab bo‘lmoqda. Atmosfera havosining isishi sayyoramizda sodir bo‘layotgan global ekologik muammolardan biridir. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi davrda inson faoliyati tufayli yiliga o‘rtacha 22 milliard tonnadan ortiq is gazini atmosferaga chiqarilmoqda. Uning miqdori yildan yilga ortib bormoqda. Atmosferaga chiqarilgan zaharli chiqindilarning aksariyat qismi yer yuzasiga qaytib tushadi va tuproqni, suvni zaharlaydi. Bu zaharli moddalar o‘simlik va hayvonlarga ham ta‘sir etadi. Tuproqqa tushgan zaharli moddalar undagi gaz rejimiga, kimyoviy jarayonlarga ta‘sir etadi. Eng yomoni, zaharli moddalar tuproqdagi barcha makro va mikroorganizmlarning faoliyatini buzadi. Havodagi turli gazlar, changlar o‘simliklarda o‘tadigan assimilatsiya jarayonlarini susaytiradi. Tuproqqa tushgan metan gazi, superfosfat, sulfat kislotalari o‘simliklarning ildiz sistemalarini zararlaydi, hosildorlikni kamaytirib, ularning sifatini buzadi.[2]

Atmosfera quyosh issiqligini yerga o‘tkazib, issiqlik saqlaydi va nur, tovush uchun o‘tkazuvchanlik vazifasini o‘taydi. Atmosfera biosferada moddalar va issiqlik almashinuvida asosiy rol o‘ynaydi. Yer yuzida rang-barang landshaftlarning vujudga kelishida va ularning taraqqiyotida atmosferaning ahamiyati katta. Atmosfera bo‘lmaganda, yer yuzida ham oydagi kabi hayot bo‘lmas edi. Quyoshdan fazoga juda katta miqdorda issiqlik energiyasi tarqalib turadi. Yer yuzasining har 1 km² maydoniga 2500000 ot kuchiga teng energiya tushadi. Quyosh energiyasi atmosferaning yuqori qatlamlarida yutilib, yer yuzasiga juda oz miqdorda yetib keladi.[3]

Havoni ifloslaydigan manbalar ko‘p. Chang bo‘ronlari, qyunlar, o‘rmon yong‘inlari, tog‘ jinrlarining nurashi va boshqa tabiiy hodisalar sayyoramiz havosini

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

doimiy ravishda ifloslab turadi. Portlash, zilzila paytlarida, neft konlarida qo‘shimcha gaz yondirilganda, yog‘och tayyorlanayotgan joylarda qoldiqlar yondirilganda va boshqa hollarda atmosfera juda ifloslanadi. Sanoat pechlarida, dvigatellarda, shuningdek maishiy xo‘jaliklarda ko‘pdan-ko‘p miqdorda mineral xomashyoning yoqilishi atmosfera havosini ifloslab, uning tarkibiga jiddiy ta‘sir etadi. Kishilarning sanoatdagi faoliyatining yil sayin tobora avj olishi, havo havzasini ifloslaydigan kattagina manbaya bo‘lib qolmoqda. Havoga ko‘p miqdorda karbonat angidrid, turli sanoat gazlari, chang chiqarilmoqdaki, bu iflosliklar butun tabiiy muhitga va insonga katta zarar yetkazmoqda. Ko‘pdan-ko‘p fabrikalar, zavodlar, transport vositalari, ko‘pgina maishiy korxonalar to‘plangan. Shuning uchun ham katta shaharlar havosi ayniqsa iflos bo‘ladi. Yoqilg‘i yonganda hosil bo‘ladigan gazlar orasida tarkibida oltingugurt bo‘lgan gazlar juda zararlidir. Oltingugurt esa ko‘mir va neft tarkibida bo‘ladi. Metallurgiya korxonalaridan, xususan rangli metallurgiya korxonalaridan chiqqan chiqindilar tarkibida azot oksidlari, vodorod sulfid, xlor, fluor, fosfor birikmalari bo‘ladi. Sement zavodlari va boshqa zavodlar ham havoga ko‘plab miqdorda zararli moddalar chiqaradi. Atmosferaga chiqadigan zararli moddalar miqdori juda katta.[4]

O‘zbekistonda boshqa davlatlar qatori atmosfera havosini muhofaza qilish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qabull qilgan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida» gi qonun asosida amalga oshiriladi. Bu qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan 1996 yil 27 dekabrda tasdiqlangan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish ko‘p omillarga bog‘liq: 1) avtotransportdan chiqaradigan zararli chiqindilarni imkoni boricha kamaytirish;

2) sanoatda kam chiqitli va chiqindisiz texnologiyani joriy etish;

3) maishiy chiqindilarni yoqishga barham berish;

4) mineral hom-ashyo va qazib olinadigan konlardan va karerlarda turli gaz, chang va boshqalarni havoga chiqishni minemal miqdorgacha kamaytirish va boshqalar.[5]

Atmosfera havosini ifloslanishini oldini olish va tashlanmalarni kamaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus dastur qabul qilingan. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan dastur foirasida 2023-yilga belgilangan 145 ta sanoat korxonalarida 723 ta chang-gazlarni tutib qolish uskunalari ta‘mirlash va yangilariga almashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, atrof-muhitga xavf darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlarga samaradorlik darajasi 99,5 foizdan kam bo‘lmagan chang-gazlarni tutib qolish uskunalari o‘rnatilmoqda. Ekologiya vazirligi tomonidan atmosfera

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

havosi ifloslanishining oldini olish maqsadida qator chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Jumladan, 2023–2025-yillarda 450 ta yirik sanoat korxonalaridagi 2200 ga yaqin chang-gaz tozalash uskunalari samaradorligi oshirish, yangi ishga tushirilayotgan sanoat obyektlariga samaradorligi 99,5 foizdan kam bo‘lmagan chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatish va boshqa kerakli choralar amalga oshirilmoqda.[6]

Xulosa qilib aytganda Atmosfera havosi ifloslanganligi bugun yoki kecha paydo bo‘lib qolgan muommalardan biri emas, shu sababli biz atmosfera havosi ifloslanish manbalarini kamaytirish uchun birgalikda ishlash orqali inson salomatligini himoya qilishimiz, ekotizmlarni saqlashimiz, toza va sog‘lom atrof-muhit uchun iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishimiz kerak.

Foydanilgan adabiyotlar:

- 1.P.S.Sultonov "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" Toshkent-2007
- 2.R.X.Allaberdiyev "Kimyoviy ekologiya" Toshkent 2019
- 3.Ekologiya, Biosfera va Tabiatni muhofaza qilish
A.Ergashev, T.Ergashev Toshkent-2005
- 4.A.Ergashev, M.T.Yulchiyeva, O‘.A.Ahmedov, A.A.Abzalov "Ekologiya" Toshkent-2010
- 5.To‘xtaboyev.A, Raximov.A Ekologiya fanidan ma’ruzalar matni Andijon-2015
- 6.<https://www.uznature.uz/uz/site/news?id=3643>

Research Science and
Innovation House